**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Geologiya va konchilik fakulteti**

**5311500 - «Geodeziya, kartografiya va kadastr» bakalavriatura ta’lim yo‘nalishi**

**“Konchilik ishi va geodeziya” kafedrasi**

# Bakalavr darajasini olish uchun

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:** ***Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi “Zarbdor” massivida yerdan foydalanuvchilarni ro’yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish.***

| | |
|---|---|
| **BMIni bajaruvchi:** | **Eshboyev Elbek** |
| **BMI rahbari:** | **Ravshanova Gulfiya** |
| **Maslahatchi:** | **Aralov Muzaffar** |

«Himoyaga ruxsat etildi»
**Kafedra mudiri________**
q.x.f.n.G‘.Aliqulov
«_____»_________2016 y.

«Himoya uchun DAK ga yuborildi»
fakultet dekani
_________dos.M.I.Rahmatov
«____»___________2016 y.

**Qarshi – 2016 y.**

## M U N D A R I J A



| t/r | Bitiruv malakaviy ishi bo'limlari nomi | Betlar |
|---|---|---|
| 1 | | |
| 2 | | |
| 3 | | |
| 4 | | |
| 5 | | |
| 6 | | |
| 7 | Xulosa | |
| 8 | Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | |
| 9 | Ilovalar | |

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
Geologiya va konchilik fakulteti
Konchilik ishi va geodeziya kafedrasi
Geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishi

TASDIQLAYMAN
Kafedra mudir
__________ G'.Aliqulov
"___"_________2016 yil

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba ***Eshboyev Elbek*** ______________________________

1. Bitiruv ishining mavzusi : ***Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi "Zarbdor" massivida yerdan foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish***

"_13__" ________ 2016 yil №____ -son kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati «____» ________ 2016 yil .
3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar .

**Ishlab chiqarish amaliyoti davrida yig'ilgan ma'lumotlar va materiallar.**

4. Hisoblash tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati).

***1.Kirish, 2. 1- BOB. Massivining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari tavsifi. 3. 2-BOB. Yer hisobi va yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning uslubiy masalalari. 4. 3-BOB. Zarbdor nomli massivda yer hisobini yuritish va kadastr raqamlarini shakllantirishning zamonaviy uslublari. 5. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.***

5. Chizma ishlari ro'yhati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi).
   1. *Massiv yerlarining joylashuv tarxi*
   2. *Massiv yerlarining yer baholash xaritasi*
   3. *Massiv yerlarning raqamli ko'rinishdagi xaritasi*
   4. *Yer balansining qiyosiy qaydnomasi*

O’zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
Geologiya va konchilik fakulteti
Konchilik ishi va geodeziya kafedrasi
Geodeziya, kartografiya va kadastr yo’nalishi

TASDIQLAYMAN
Kafedra mudir
__________ **G’.Aliqulov**
“___”_________2016 yil

***Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi “Zarbdor” massivida yerdan foydalanuvchilarni ro’yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirish mavzusida***

# BITIRUV MALAKAVIY IShI

# DASTURI

**BMIni bajaruvchi** **E. Eshboyev**

**Rahbar** **G. Ravshanova**

**Qarshi – 2016**

**Kirish**

1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida Respublikamizda fermer xo'jaliklarini yuritishshining o'ziga xos xususiyatlari.

2. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, unda qo'yilgan vazifalar va asos qilib olingan materiallar

**1- BOB. Massivining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari tavsifi.**

1.1. Massivning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari

1.2. Massiv yer turlari va ulardan foydalanish tavsifi

1.3. Zarbdor massividagi aholi punktlari, yo'l va sug'orish tarmoqlarining tavsifi.

1.4. Massiv ishlab chiqarish faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari.

**2-BOB. Yer hisobi va yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning uslubiy masalalari**

2.1 Yer hisobi va yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish davlat yer kadastrining tarkibiy qismi sifatida.

2.2. Yer hisobi ma'lumotlari tizimi va undan foydalanishning uslubiy asoslari.

2.3 Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning nazariy asoslari hamda uslubyati.

2.4. Dala sharoitida ishchi xodimlarni havfli omillardan himoya qilish

**3-BOB. Zarbdor nomli massivda yer hisobini yuritish va kadastr raqamlarini shakllantirishning zamonaviy usullari**

3.1. Massivida kanallarning sug'orish mintaqalari bo'yicha yer hisobini o'tkazish.

3.2. Massivdagi yerdan foydalanuvchilarning yer turlari bo'yicha hisobini yuritish.

3.3. Massiv hududida mavjud yerdan fodalanuvchilarning yer uchastkalarida kadastr raqamlarini shakllantirishni zamonaviy usullaridan foydalanish.

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

**Ilovalar**

# KIRISH

Respublikamizda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarinini bartaraf etish bo'yicha 2009 - 2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturi 2010-yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Istiqlolning dastlabki yillarida qabul qilingan beshta tamoyilga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli yildan yilga o'zini oqlab, to'g'ri va aniq ekanligini isbotlanmoqda.

Iqtisodiyotning mafkuradan holi bo'lishi, iqtisodiyotni siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olish, qonun ustivorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirish tamoyillari dunyoda avj olib borayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligini ko'rsatdi.

Eng muhim ustivor vazifa qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini, qishloqda hayot sifatini, ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun mohiyatini o'zgartirishga, agrasanoat majmuasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga, oxir oqibatda qishloq aholisining, ijtimoiy siyosiy va madaniy saviyasini, ongli va fuqorolik ma'suliyatini oshirishga qaratilgan davlat dasturini 2010 yilda amalga oshirish muhim vazifadir.

2010 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega. Fermer xo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi. Fermer xo'jaliklari bugungi kunda qishloqda yetakchi bo'g'inga - qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi. Yer maydonlarini to'liq inventarizayadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Yer kadatri-davlatimizning yer to'g'risidagi qonunlarini xayotga tadbiq qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, u yer va yer bilan bog'liq ishlab chiqarish

vositalaridan mehnat resurslaridan to'la, oqilona va samarali foydalanishga, yerni va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgandir.

Yer kadatri ishlarining tarkibi asosan xalq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil qilish talablaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrda yer kadatri ishlari quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi:

-topografiya, geodeziya, xaritashunoslik, geobotanika, tuproq va boshqa yer kadatri uchun zarur izlanishlarni o'tkazish;

- respublikamizda yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish Bosh chizmasini, Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va tumanlar yer kadatri chizmalarini ishlash;

Yer kadatri ishlari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida va qishloq xo'jalik korxonalarida o'tkazilib, yangi yerlarni o'zlashtirish va ularni qishloq xo'jaligi yerlariga qo'shish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish va dehqonchilik madaniyatini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Yer xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini joylashtirish va ularning faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur tarmoqlararo resurs hisoblanadi. Respublikamiz yerlarining 50,12% qishloq xo'jalik yerlari tashkil qilganligi sababli, boshqa tarmoq korxonalari, davlat va jamoatchilik ehtiyojlari uchun yerlar ko'p vaziyatlarda qishloq xo'jalik yerlari hisobidan ajratiladi. Bu ishlar O'zbekiston respublikasining yer to'g'risidagi qonunlariga, vakolatli davlat hokimiyat organlarining maxsus qaror va farmoyishlariga asosan olib boriladi. Yerlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy sub'ekt hisoblangan fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga foydalanish huquqi bilan berilsa qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoq korxonalariga faqat foydalanishguchun beriladi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Qashqadaryo viloyati Chiroqchitumanidagi Zarbdornomli massivda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari hududida yer hisobini yuritish va ularda kadastr raqamlarini shakllantirishdan iboratdir.

# 1- BOB. MASSIVINING TABIIY, IQTISODIY VA IJTIMOIY SHAROITLARI TAVSIFI

## 1.1 Massivning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari

CHIROQCHI TUMANI - Qashqadaryo viloyatida joylashgan tumandir. 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. 1962 yilda Yakkabog' tumaniga qo'shilgan. 1964 yil 22 fevralda qayta tashkil etildi. Sharqdan Shahrisabz, Kitob, janubi-sharqdan Yakkabog', janubdan Qamashi, g'arb va janubi-g'arbdan Qarshi, Koson tumanlari, shimoldan Samarqand viloyatining Pastdarg'om va Nurobod tumanlari bilan chegaradosh. Chiroqchi tumanining umumiy maydoni 2,84 ming km2. Aholisi 270 ming kishi (2003). Tumanda 1 shahar (CHiroqchi), 20 qishloq fuqarolari yig'ini (Dam, Dodiq, Jar, Ko'kdala, Langar, Mirzato'p, Oxunbo-boev, Paxtaobod, Torjilg'a, Uymovut, Uyshun, Xumo, Chim, Chorvador, Sho'rquduq, Eski Angor, Yangi Hayot, Qalqama, Qahramon, Qumdaryo) bor. Markazi — Chiroqchi shaxri.

**Tabiati .** Tuman hududi viloyatning shimoliy qismida joylashgan. Relefi tekis cho'l va qir-adirlardan iborat bo'lib, janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa (Koratepa tog'i) balandlashib boradi. Balandligi tekis cho'l qismida 400— 600 m, adirda 700—900 m va Zarafshon tizmasining davomi bo'lmish Qoratepa tog'ida 1200—1500 m. Dursun qishlog'i yonida tabiiy gaz koni topilgan.

**Iqlimi keskin kontinental.** Yillik o'rtacha havo harorati 14,7°. Yanvarning o'rtacha harorati 2,7°, eng past harorat —20°. Iyulning o'rtacha harorati 28°, eng yuqori harorati 45°. Vegetatsiya davri 220—230 kun. Yiliga 368 mm, sharqida 400—500 mm yog'in tushadi. Tumandagi ekinlar Qashqadaryo, Qumdaryo, Oyoqchidaryo va boshqa kanallardan sug'oriladi. Tumanning janubida Chimqo'rg'on suv om-bori bor. Shimoliy tog'li zonada o'tloqi, tekislik qismida tipik bo'z tuproqlar, och bo'z tuproq, daryo vodiylarida o'tloqi-botqoq tuproqlar tarqalgan. Yovvoyi o'simliklardan rang, qarg'aoyoq, qamish, chitir, karrak, bug'doyiq, yantoq, qashqar beda, qoramug', qo'ziquloq, oqquray, tuyaqorin va boshqa o'simliklar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan tulki, yumronqoziq, quyon, kalamush, qo'shoyoq, sichqon, echkemar; qushlardan qirg'ovul, so'fito'rg'ay, chumchuq, chug'urchiq, zarg'aldoq va boshqa qushlar bor.

Aholisi, asosan, o’zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, rus, ukrain va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o’rtacha zichligi 1 km2 ga 95,1 kishi. Qishloq aholisi 252,5 ming kishi, shahar aholisi 17,5 ming kishi (2003).

Xo’jaligi. Tumanda 2526 yirik, o’rta, kichik korxona va mikrofirmalar, paxta tozalash, g’isht zavodlari, gilam fabrikasi, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxona, bosmaxona, savdo, madaniy va maishiy xizmat ko’rsatish shoxobchalari bor. 20 shirkat, 970 fermer, bo’rdoqichilik xo’jaliklari faoliyat ko’rsatadi. Kishloq xo’jaligida esa paxtachilik, g’allachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Pillachilik bilan ham shug’ullaniladi. Ekin maydonlariga paxta, don, kartoshka, poliz, sabzavot, ozuqa ekinlari ekiladi. Tuman jamoa va shaxsiy xo’jaliklarida qoramol, qorako’l qo’y, parranda boqiladi. 174 umumiy ta‘lim, bolalar musiqa maktablari, 3 kasb-hunar kollejlari, markaziy kutubxona va uning tarmoqlari, 18 klub muassasalari, madaniyat va istirohat bog’i ishlab turibdi. Kasalxona, feldsher-akusherlik punktlari, poliklinika, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar mavjud.

1-jadval

«Chiroqchi» meteorologik stansiyasining ko'p yillik ma'lumotlari bo'yicha massiv iqlimining asosiy asosiy ko'rsatkichlari

| T.r. | K o' r s a t k i ch l a r | O'rtacha yillik miqdori |
|---|---|---|
| 1 | Atmosferaning o'rtacha yillik harorati | +9,8 S |
| 2 | Atmosferaning maksimal harorati | +23 $^{0}$S |
| 3 | Atmosferaning minimal harorati | -5 $^{0}$S |
| 4 | Foydali harorat yig'indisi | 3100 $^{0}$S |
| 5 | Bahorgi oxirgi sovuq kun | 18.03 |
| 6 | Kuzgi birinchi sovuq kun | 10.11 |
| 7 | Yil davomidagi sovuqsiz kunlar miqdori | 230-235 kun |
| 8 | Yog'ingarchilikning yillik miqdori | 280-300 kun |
| 9 | Shamolning yillik o'rtacha miqdori | 8-10 m/sek |
| 10 | Shamol yo'nalishining qaytarilishi<br>Sh<br>ShShq<br>Shq<br>JShq<br>J<br>JG'<br>G'<br>ShG' | %<br>24,0<br>22,4<br>8,0<br>19,4<br>10,0<br>10,2<br>8,2<br>25,4 |

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, foydali harorat yig'indisi vegetatsiya davrida 3100 $^{0}$ S ni tashkil etadi. Shamolning asosiy yo'nalishlari sharqdan, janubiy sharqdan va janubdan hisoblanadi. Yog'ingarchilikning asosiy qismi bahor, kuz va qish oylariga to'g'ri keladi.

Yil davomidagi kuchli yomg'irli kunlar miqdori o'rtacha 15-17 kunga teng, +35 $^{0}$ S dan yuqori haroratga ega bo'lgan kunlar soni 55 kunni tashkil etadi. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, massiv hududi asosiy issiq sevar ekin hisoblangan paxta, donli ekinlar, sabzavot va boshqa qishloq massivi ekinlarini yetishtirish uchun qulaydir. Shu sababli ham massivda su'niy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ancha rivojlangan.

**Re'lefi.** Massiv hududi asosiy qismi tekisliklardan iborat bo'lib, umumiy nishablik janubdan shimolga qarab ketadi. Massiv tekisliklarini bu yerda qurilgan

sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, ularning do'ngliklari va eski ariqlarning qoldiq o'rinlari buzadi. Umumiy nishablik 0,0012 - 0,0013 ni tashkil etadi.

**Tuprog'i.** «O'zdaverloyiha» ilmiy loyihalash instituti Yer kadastri filialining tuproq ekspeditsiyasi tomonidan 1999-2000 yillarda o'tkazilgan tuproq kuzatuvlarining ma'lumotlariga qaraganda, massiv hududida asosan sug'oriladigan bo'z va bo'z o'tloqi tuproqlar tarqalgan. Massiv yerlarining asosiy qismini bo'z o'tloqi tuproqlar egallagan. Bu ikki xildagi tuproqlar o'zlarining xususiyatlari va diagnostik belgilari bo'yicha bir-birlaridan farq qiladigan qator tuproqlar ayirmalariga bo'linadi. Massiv hududidagi tuproq xillari asosan yangidan sug'oriladigan o'rta va kam darajada madaniylashgan. Yer osti suvlari sathining yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli massivdagi tuproqlar kuchli va juda kuchli darajada sho'rlangan. Massiv maydonlarida tarqalgan tuproq ayirmalarining umumiy tavsiflari quyidagi 2- jadvalda keltirilgan.

2- jadval

Massiv xududida tarqalgan tuproqlar eksplikatsiyasi

| Tup-roq xil-lari | Sug'orilish davri va madaniylashganlik darajasi | Mexanik tarkibi | | Chirindi | | Sho'r-lanish dara-jasi | Tosh-loqlik dara-jasi | Maydoni, ga | | Hisob-langan boni-tet bali | Sifati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 0-30 sm | 30-100 sm | Qalin-ligi | % | | | Umu-miy | Hay-dal-ma yer-lari | | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| 1 | Yangidan sug'oriladigan kam madaniylashgan | O'rta qumoq | Og'ir qumoq | 60 | 0,97 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 48 | 42 | 65 | Yaxs hi |
| | Eskidan sug'oriladigan o'rta madanilashgan | Yengil qumoq | Yengil qumoq | 70 | 1,00 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 244 | 147 | 80 | Yaxs hi |
| | Yangidan sug'oriladigan kam madaniylashgan | O'rta qumoq | Yengil qumoq | 50 | 0,82 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 288 | 172 | 45 | O'rta cha |
| | Yangidan sug'oriladigan o'rta madaniylashgan | Og'ir qumoq | O'rta qumoq | 50 | 0,92 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 446 | 332 | 63 | Yaxs hi |
| | Yangidan sug'oriladigan kam madaniylashgan | Yengil qumoq | Og'ir qumoq | 50 | 1,14 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 265 | 205 | 70 | Yaxs hi |
| | Yangidan sug'oriladigan kam madaniylashgan | O'rta qumoq | Yengil qumoq | 70 | 1,00 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 64 | 50 | 41 | O'rta cha |
| | Yangidan sug'oriladigan o'rta madaniylashgan | Og'ir qumoq | Yengil qumoq | 60 | 1,00 | Sho'rlanma gan | Yuvilma gan | 41 | 32 | 67 | Yaxs hi |
| | Eskidan sug'oriladigan | Yengil | O'rta | 50 | 0,98 | Kam sho'r- | Yuvilma | 776 | 515 | 49 | O'rta |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | kam madanilashgan | qumoq | qumoq | | | gan | gan | | | | cha |
| | Yangidan sug'oriladigan kam madaniylashgan | O'rta qumoq | Og'ir qumoq | 50 | 0,64 | Kam sho'r-gan | Yuvilma gan | 556 | 306 | 41 | O'rta cha |
| | Quriq yerlar | | | | | | | 121 | | | |
| | Kishloq xo'jaligiga yaroqsiz yerlar | | | | | | | 20 | | | |
| | Suv yuzasi | | | | | | | 190 | | 55 | |

2- jadvaldagi ma'lumotlarga qaraganda sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar asosan yangidan sug'oriladigan o'rtacha darajada madaniylashgan, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar ham yangidan sug'oriladigan, o'rta va kam madaniylashgan tuproq ayirmalaridan iborat.

Chirindi qatlamining qalinligi och tusli bo'z tuproqlarda 15-20 sm. ni, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda esa 30-35 sm. ni tashkil qiladi. Bu hol o'z navbatida ushbu tuproqlarning umumiy unumdorligiga o'zining ta'sirini o'tkazgan. Massiv maydonlarida tarqalgan tuproqlar o'zlarning tosh aralashganlik darajasi bilan ham ajralib turadi. Bu esa ularga ishlov berishda qisman qiyinchiliklar tug'diradi. Massivi hududining 21,5 foizini sug'oriladigan och tusli tuproqlar, 69,5 foizini esa sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar tashkil etadi. 1999-2000 yillarda o'tkazilgan yer baholash ishlarining natijalariga qaraganda massiv tuproqlarining o'rtacha bonitet balli 55 ball bilan, aksincha unumdorligi past tuproqlar 41 ball bilan baholangan. Massiv maydonlarining 40 foizi yaxshi sifatga, qolgan 60 foizi esa sifati past tuproqlardan iborat. Bu ma'lumotlardan kelgusida massiv yer maydonlaridan foydalanish yo'nalishlarini belgilashda va uning samaradorligini oshirish bo'yicha aniq tadbirlar belgilashda foydalanish zarur. Bundan birinchi navbatda shirkat massivi yer maydonlaridan foydalanishni tahlil qilishda foydalanish zarurdir.

### 1.2. Massiv yer turlari va ulardan foydalanish tavsifi

Tuman yer resurslari va davlat kadastri bo'limidan olingan rasmiy ma'lumotlar va materiallarga qaraganda massivi chegarasidagi yerlarning umumiy maydoni 720,30 gektarni tashkil etadi. Umuman, massiv yer maydonlarini yer turlari bo'yicha taqsimlanishi tug'risidagi ma'lumotlar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan

3-jadval

«Zarbdor» massivi yer maydonlarini yer turlari bo'yicha taqsimlanishi

| T.r. | Ko'rsatkichlar | Maydoni, ga | Umumiy maydonga nisbatan % hisobida | Qishloq massiv yerlariga nisbatan % hisobida |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Jami haydalma yerlar | 2034,0 | 66,5 | 85,1 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | shundan sug'oriladigani | 1892,0 | 61,9 | 79,1 |
| 2 | Ko'p yillik daraxtzorlar<br>shundan: bog'lar<br>uzumzorlar<br>tutzorlar | 99,0<br>67,0<br>32,0 | 3,2<br>2,19<br>1,0 | 4,1<br>2,0<br>1,3 |
| 3 | O'tloq va yaylovlar | 256 | 8,3 | 10,7 |
| 4 | Jami qishloq massiv yerlari | 2389 | 78,1 | 100 |
| 5 | Tomorqa yerlari | 235 | 7,6 | |
| 6 | O'rmonzorlar | 13 | 0,4 | |
| 7 | Terakzorlar | 12,4 | 0,4 | |
| 8 | Ihota daraxtzorlari | 28,0 | 0,9 | |
| 9 | Daryo va soyliklar | 22,5 | 0,7 | |
| 10 | Suv havzalari, ko'llar va boshqa suv bilan band bo'lgan yerlar | | | |
| 11 | Ariqlar, zovurlar bilan band bo'lgan yerlar | 46,7 | 1,5 | |
| 12 | Yo'llar, mollarni haydab o'tish yo'llari | 54,9 | 1,7 | |
| 13 | Qurilishlar, ko'chalar, hiyobonlar | 66,7 | 2,1 | |
| 14 | Boshqa yerlar | 47,2 | 1,5 | |
| 15 | Meliorativ holatdagi yerlar | 17,0 | 0,5 | |
| 16 | Massivk biriktirilgan jami yer maydoni | 2932,4 | 95,9 | |
| 17 | Begona yerdan foydalanuvchilar | 123,6 | 4,1 | |
| 18 | Massiv chegarasidagi barcha yerlar | 3056,0 | 100 | |

3-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, massiv umumiy yer maydonlarining 78,1 foizini qishloq massiv yerlari, shundan 66,5 foizini haydalma yerlar, 3,2 foizini esa ko'p yillik daraxtzorlar tashkil etadi. Massivdagi qishloq massiv yerlarining deyarli 85,1 foizini haydalma yerlar tashkil etadi, bog'lar esa 2,1 foizini tashkil etadi xolos. Keyingi yillarda qishloq xonadonlari tomorqa yerlarining kengayganligi sababli bugungi kunga kelib massiv maydonlarining dearli 7,6 fizini tomorqa yerlari tashkil etadi.

Yuqorida qayd qilinganidek massiv hududida turli tuman begona yerdan foydalanuvchilar ham joylashgan bo'lib, ularning umumiy yer maydoni 123,6 gektarni tashkil etadi. Bular turli tuman sanoat va transport korxonalari, ta'lim-tarbiya muassasalari bo'lib, asosan massiv aholisiga xizmat ko'rsatish, ularning turmush madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu begona yerdan

foydalanuvchilar egallagan maydonlar to'g'risida ma'lumotlar quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

«Zarbdor» massivi chegarasidagi begona yerdan foydalanuvchilar va ularning yer maydonlari tavsifi

| T.r. | Yerdan foydalanuvchilar | Jami yer maydoni | Shundan | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Haydalma yerlar | Ko'p yillik daraxtzorlar | O't-loq va yaylov-lar | Qurilish-lar | Ariqlar va yo'l-lar | Boshqa yerlar |
| | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| | Maktab №7 | 2,0 | | | | 2,0 | | |
| | Chap qarg'oq beshkariq kanali | 38,4 | | | | | 38,4 | |
| | Sandol knali | 46,3 | | | | | 46,3 | |
| | Toshkent-Termiz temir yo'li | 16,2 | | | | | | 16,2 |
| | Savdo do'koni | 1,0 | | | | 1,0 | | |
| | Maktab №32 | 2,8 | | | | 2,0 | | 0,8 |
| | Idora | 1,6 | | | | 1,2 | | 0,4 |
| | Chiroqchi-Qarshi avto. yo'li | 6,8 | | | | | 6,8 | |
| | Bog'cha | 1,8 | | | | 1,0 | | 0,8 |
| | Maishiy xizmat uyi | 1,0 | | | | 0,5 | | 0,5 |
| | Sport saroyi | 3,0 | | | | 3,0 | | |
| | Aloqa punkti | 1,0 | | | | 1,0 | | |
| | Jami | 123,6 | | | | 11,7 | 91,5 | 20,4 |

4-jadvaldan ko'rinadiki massiv chegarasida mavjud bo'lgan begona yerdan foydalanuvchilar ichida eng yiriklari, bu Sandol knali, Chap qarg'oq beshkariq kanali, Toshkent-Termiz temir yo'lidir.

Massiv xududi xozirgi kunda 13 ta mavjud fermer xo'jaliklariga taqsimlangan bo'lib ularga jami 720,30 ga yer maydoni ajratilgan. Quyidagi jadvalda fermer jo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

5 - jadval

«Zarbdor» massividagi fermer xo'jaliklari va ularning yer maydonlari haqida ma'lumot.

| | **Fermer massivlari nomi** | **Ixtisosligi** | **Umumiy maydoni, ga** | **Tashkil topgan yili** |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Arzi Serkaev | g'alla- paxta | 44,4 | 2008.07.11 |
| 2 | Ahmedov Mexrjaxon | g'alla- paxta | 59,5 | 2008.17.11 |
| 3 | Begali Soatov | g'alla- paxta | 19,0 | 2009.10.12 |
| 4 | Bog'ishamol sohili | g'alla- paxta | 106,1 | 2008.17.11 |
| 5 | G'olib | g'alla- paxta | 61,5 | 2008.17.11 |
| 6 | Islom | g'alla- paxta | 68,0 | 2009.10.12 |
| 7 | Musurmonov G'ayrat | g'alla- paxta | 55,2 | 2010.30.12 |
| 8 | Sobit Shermamat | g'alla- paxta | 63,5 | 2008.17.11 |
| 9 | Nuriddin Boyqobilov | g'alla- paxta | 45,6 | 2014.20.06 |
| 10 | Xumo | g'alla- paxta | 59,0 | 2009.10.12 |
| 11 | Xumoyun Fozilovich | g'alla- paxta | 59,0 | 2004.27.03 |
| 12 | CHashma | chorvachilik | 33,0 | 2005.03.01 |
| 13 | Saydulla bobo nabirasi Jalolidin | chorvachilik | 46,2 | 2010.03.08 |
| 14 | Vetlaborotoriya | | 1,0 | |
| 15 | Zaxira | | 1,0 | |
| **Jami** | | | 720,30 | |

5-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki massiv xududidagi fermer xo'jaliklari orasida «Bog'ishamol sohili» fermer xo'jaligi eng yirigi bo'lib uning maydoni 106,10 ga ni tashkil etadi.


Хизмат юзасидан фойдаланиш учун №      нусха
Қашқадарё вилояти Чироқчи тумани
"Зарбдор"массиви ерларининг
ТАРҲИ
А
Б
В
Г
Чегарадош ерлар изохномаси
А дан Б гача "Охунбобоев" массиви ерлари
Б дан В гача Яккабог тумани ерлари
В дан Г гача "Сохибкор" массиви ерлари
Г дан А гача "С.Жўраев" массиви ерлари
Микёси 1:10000
1 centimeter равен 100 meters
маъсул: Бош мутахассис Д.Каримова

## 1.3. Zarbdor massividagi aholi punktlari, yo’l va sug’orish tarmoqlarining tavsifi.

«Zarbdor» massivi hududida jami 2500 kishi istiqomat qiladi. Ushbu aholi punktlari va ulardagi aholi soni to’g’risidagi ma’lumotlar quyidagi 6-jadalda keltirilgan.

6 - jadval

«Zarbdor» massivi hududidagi aholi yashash punktlarining tavsifi

| T.r. | Aholi punktlarining nomi | Umumiy aholi soni | Xonadonlar soni | Mehnatga layoqatli odamlar soni | Shundan massivda ishlaydigani |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | Chappa arif | 768 | 417 | 649 | 412 |
| 2 | Nayman saroy | 521 | 231 | 381 | 224 |
| 3 | Ravot | 586 | 339 | 392 | 326 |
| 4 | Karchin | 625 | 427 | 425 | 422 |
|  | Jami | 2500 | 1414 | 1817 | 1384 |

6 - jadvaldagi ma’lumotlardan ko’rinadiki, massiv hududida mavjud bo’lgan aholi punktlarining ichida «Chaydari» qishlog’i eng yirik hisoblanib, bu aholi punktida jami 2500 kishi istiqomat qiladi, lekin bor-yo’g’i 1384 kishi massivda ishlaydi. Mehnatga layoqatli aholining dearli 42,6 foizi massivdan tashqarida ishlaydilar,

Massivda asosan su’niy sug’orish asosida dehqonchilik yuritiladi. Massiv maydonlari Sandol kanalidan suv oladigan xo’jaliklararo kanallari yordamida sug’orish suvi bilan ta’minlanadilar. Buning uchun massiv juda ko’p tarmoqlangan sug’orish kanallariga, jumladan ichki massiv kanallariga, uchastkalarga va suv taqsimlaydigan kanalchalarga egadir. Sug’orish kanallarini yuqori sifatda va yuqori unumdorlik bilan ishlashini ta’minlashga massivda katta e’tibor beriladi. Shu sababli ham bugungi kunda massivdagi asosiy sug’orish tarmoqlari betonlashtirilgan, zarur gidrotexnik inshootlar bilan ta’minlangan. Ammo shunga qaramasdan ba’zi ichki kanallarni qayta ta’mirlash zarurdir. Massiv sug’orish tarmoqlari bilan bir qatorda zarur kollektor-derenaj taromoqdariga ham egadir. Bu tarmoqlar asosan yerlarning

meliorativ holatini yaxshilash, sho'rini yuvish va ortiqcha suvlarni chiqarib tashlash yoki bu suvlarni jamlab qaytadan foydalanishda qo'l keladi.

Massiv yer fondi va undan foydalanish to'g'risida so'z yuritilar ekan, uning iqtisodiyotiga, odamlarning turmush sharoitini oshirishga yo'naltirilgan omillardan biri hisoblangan yo'l tarmoqlarini massivda anchagina rivojlantirilganligini alohida e'tirof etish zarur. Massivning ichki yo'llari 54,9 gektarni tashkil etgani holda, ularning sifati bugungi kunda talabga umuman javob beradi, barcha yo'llar asfalt bilan qoplangan, yo'l inshootlari bilan jihozlangan.

## 1.4. Massiv ishlab chiqarish faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari.

Massiv to'g'risida, uning ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha olingan ma'lumotlarga qaraganda, shirkat massivining asosiy ishlab chiqarish tarmog'i – dehqonchilik, yordamchi tarmog'i – chorvachilik hisobdlanadi. Dehqonchilikda massiv asosan paxta, don, sabzavot, kartoshka va yem-xashak ekinlarini yetishtiradi. Dehqonchilikning barcha sohalari bugungi kunda asosan oilaviy pudratga o'tkazilgan. Massiv a'zolarining barchasi o'z paylariga egadirlar. Natijada massiv iqtisodiyoti keyingi yillarda ancha ko'tarildi, yerdan va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi ancha orshdi. Bularning barchasini quyidagi iqtsodiy natijalardan ko'rish mumkin. Quyidagi 6-jadvalda shirkat massivining ekin maydonlarida 2009 yilda ekilgan qishloq massiv ekinlarining tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

7 - jadval

Qishloq massivi ekinlarining tarkibi

| T.r. | Qishloq massiv ekinlari | Maydoni | |
|---|---|---|---|
| | | ga | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1 | Sug'oriladigan bug'doy<br>Lalmi bug'doy | 681,1<br>142,0 | 33,4<br>6,9 |
| 2 | Makkajo'xori jami:<br>shundan: - donga<br>- silosga | <br>46,0<br>18,4 | <br>2,2<br>0,9 |
| 3 | G'o'za | 1057,6 | 51,9 |
| 4 | Sabzavot | 29,3 | 1,4 |
| | Kartoshka | 14,6 | 0,7 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5 | Beda | 27,7 | 1,3 |
| 6 | Poliz | 10,6 | 0,5 |
| 7 | Arpa | 6,7 | 0,3 |
| | | | |
| | Jami: | 2034 | 100 |

7-jadvaldagi ma’lumotlardan ko’rinadiki jami ekin maydonlarining asosiy qismi paxta va don ekinlari bilan band bo’lgan. Boshqa ekinlarning maydoni unchalik katta emas. Ayniqsa beda ekining maydoni massiv bo’yicha bor-yo’g’i 27,7 gektarni tashkil etadi. Kartoshka ekinining maydoni ham ko’p emas, ya’ni 14,6 gektardan iborat. Massivda iyun oyida don ekinlari, yani bug’doydan 681 gektar maydon bo’shaydi. Bu yerlarda esa takroriy ekinlarni ekish umuman yo’lga qo’yilmagan. Bu hol sug’oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Massivdagi dehqonchilikning mavjud holatini aniqlash va unga to’g’ri baho berish, sug’oriladigan ekin maydonlaridan foydalanishning mavjud darajasini aniqlash uchun massivda ekilgan qishloq massiv ekinlarining hosildorliklari, yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining miqdorlari to’g’risidagi ma’lumotlarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Bu ma’lumotlar quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

“Zarbdor” massivida 2011 yilda yetishtirilgan qishloq massiv ekinlarining hosildorliklari va yetishtirilgan mahsulotlar.

| T.r. | Qishloq massiv ekinlari | Ekinlarning maydoni, ga | Hosildorligi ga\s | Yalpi hosil, t |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. | Sug’oriladigan bug’doy | 681,4 | 36,6 | 2493,9 |
| 2. | Arpa | 6,7 | 38,4 | 25,7 |
| 3. | Makkajo’xori – donga | 46,0 | 93,4 | 429,6 |
| 4. | Paxta | 1057,6 | 23,0 | 2432,4 |
| 5. | Sabzavot | 29,3 | 160,2 | 469,3 |
| 6. | Makkajo’xori – silosga | 18,4 | 171,3 | 315,1 |
| 7. | Kartoshka | 14,6 | 108,0 | 157,6 |
| 8. | Beda | 27,7 | 156,0 | 432,1 |
| 9. | Poliz | 10,6 | 181,3 | 192,1 |
| | Jami | 2034 | - | - |

8 - jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Zarbdor massivida 2011 yilda 2493,9 tonna bug'doy, 2432,4 tonna paxta va ko'pgina dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan. Bunda bug'doyning hosildorligi gektaridan 36,6 sentnerni, paxtaniki 23,0 sentnerni tashkil etgan. Umuman bu ko'rsatkichlar massivda sug'oriladigan maydonlardan foydalanish darajasi o'rtacha ekanligini ko'rsatadi, negaki ba'zi o'xshash tabiiy-iqtisodiy sharoitga ega bo'lgan massivlarda sug'oriladigan maydolardan olinayotgan hosildorlik dondan o'rtacha 38,0 sentnerni, paxtadan esa 24,4 sentnerni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar massiv yer maydonlaridan foydalanish darajasiga aniq baho berish imkonini beradi.

Chorvachilik tavsifi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda 2000-2002 yillarda boshlarida massiv ixtiyorida 2 ta chorvachilik fermasi bo'lib, ularda jami 600 boshdan ortiq jamoa qoramollari parvrish qilingan. 2004-2006 yillarda massivning chorvachilik fermalarini xususiylashtirish natijasida 1 ta qoramol fermasi xususiylashtirilgan va bugungi kunda massiv ixtyorida faqat bitta ferma qolgan bo'lib unda jami 182 qoramol jumlada 116 bosh sog'iladigan sigirlar mavjud. Chorvachilik massivda yordamchi tarmoq sifatida faoliyat ko'rsatadi. U bugungi kunda to'la oilaviy pudratga o'tkazilgan. Massivda chorvachilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

9 - jadval

Chorvachilikning asosiy ko'rsatkichlari

| T.r. | Ko'rsatkichlar | O'lchov birilgi | Miqdori |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. | Mavjud qoramollar soni | bosh | 182 |
| 2. | Sog'iladigan sigirlar soni | bosh | 116 |
| 3. | Bir sigirdan sog'ib olinadigan sut | kg | 1680 |
| 4. | Jami yetishtirilgan sut | t | 184,8 |
| 5. | Jami yetishtirilgan go'sht | t | 2,8 |

9 - jadvaldan ko'rinadiki 2011 yilda massiv bo'yicha 184,8tonna sut, 2,8 tonna go'sht yetishtirilgan. Bu ko'rsatkichlar 2010 yilga nisbatan 1,5 foizga ko'p ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga qayd qilish joizki, massivda xususiy va shaxsiy chorva mollar bosh soni ko'paymoqda. Qishloq fuqarolar yig'inidan olingan ma'lumotlarga

qaraganda, 1999 yilga nisbatan 2009 yilda xonadonlardagi shaxsiy qoramollar soni 2 barobar oshgan.

Massivdagi yana bir yordamchi tarmoq bu bog'dorchilik hisoblanadi. Massivi hududida 66,0 gektar bog' maydonlari mavjud bo'lib ularning barchasi hosil beradigan bog'lardir. 2009 yil natijaliri bo'yicha har bir gektar bog'dan olingan hosildorlik 110,0 sentnerni, jami 726,0 tonna mevani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar boshqa qo'shni massivlarga nisbatan ancha yaxshidir.

Massivida yil davomida yetishtirilgan chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini davlatga sotish yoki bir qismini bozorda sotish, boshqa korxona, tashkilot va muassasalarga turli xizmatlar ko'rsatish natijasida umumiy daromad vjudga keladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish yoki xizmat ko'rsatishga sarflangan xarajatlarni aniqlash va ularni massiv yalpi daromadidan chiqarib tashlash natijasida sof daromad vujudga keladi. Bu sof daromadning bir qismi massivni rivojlantirish uchun sarflansa, qolgan qismi divident sifatida massiv va fermer xo'jaligi a'zolariga tarqatiladi. Massiv faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'ratkichlari quyidagi 10-jadvalda keltirilgan.

10 - jadval

Massivning asosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

| T.r. | Ko'rsatkichlar | O'lchov birilgi | Miqdori |
|---|---|---|---|
| 1. | Massivning umumiy yer maydoni | ga | 3056,0 |
| 2. | Foydalaniladigan umumiy maydoni | ga | 2034,0 |
| 3. | Sug'oriladigan haydalma yer maydoni | ga | 1892,0 |
| 4. | G'o'za maydoni | ga | 1057,6 |
| 5. | Bug'doy maydoni | ga | 823,1 |
| 6. | Hosildorlik:<br>- g'o'za<br>- bug'doy | s\ga<br>s\ga<br>s\ga | <br>23,0<br>36,6 |
| 7. | Yalpi hosil:<br>- paxta<br>- bug'doy | t<br>t<br>t | <br>2432,4<br>2493,9 |
| 8. | Yetishtirilgan:<br>- sut<br>- go'sht | <br>t<br>t | <br>184,8<br>2,8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. | Oligan yalpi daromad jami:<br>- dehqonchilikdan<br>- chorvachilikdan | ming so'm<br>ming so'm<br>ming so'm | 3554020<br>3137020<br>417000 |
| 10. | Saflangan xarajatlar | ming so'm | 2940888 |
| 11. | Sof daromad | ming so'm | 613132 |
| 12 | Rentabellik darajasi | % | 20,8 |

10 - jadvaldan ko'rinadiki, 2011 massiv yilida massiv bo'yicha 613,1 mln. so'm sof daromad olingan. Rentabellik darajasi esa 20,8 foizni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida massiv hududida faoliyat olib borayotgan fermer xo'jaliklari yerlarini, ularning joylashashi, tuproq unumdorligi, suv bilan ta'minlanganlik darajasi asosida me'yoriy (iktisodiy) baholash ishlarini amalga oshiramiz.

# 2-BOB. YER HISOBI VA YER UCHASTKALARIGA BO'LGAN XUQUQLARNI RO'YXATGA OLISH VA KADASTR RAQAMLARINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY MASALALARI

## 2.1. Yer hisobi va yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni ro'yxatga olish davlat yer kadastrining tarkibiy qismi sifatida.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillika erishishi, iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllana borishi birinchi galda yer munosabatlarining tubdan qayta qurishni taqozo qiladi. Bu o'z navbatida davlat yer kadastrlarining yagona tizimining asosiy tarkibidan biri hisoblangan davlat yer kadastrini yuritish zaruriyatini tug'diradi. Bularning barchasi 1998 yilga kelib O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» ni va «Davlat yer kadastri to'g'risida» gi qonunni hamda yerlardan foydalanishda, davlat yer kadastrini yuritish bilan bog'liq bo'lgan qator me'yoriy xujjatlarni qabul qilinishiga asos bo'ldi.

«Davlat yer kadastri to'g'risida» gi qonunga muvofiq «Davlat yer kadastri Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchaskalarining o'rni va o'lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va muldorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda xujjatlar tizimidan iboratdir»

Davlat yer kadastri yer uchastkalariga bo'lagan huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, yerlarning miqdori va sifatining hisobga olinishi, tuproq bonitrovkasini, yerlarning qiymat bahosini, shuningdek yer kadastriga doir axborotlar bir tizimga solinishi, saqlanishi va yangilab turilishini o'z ichiga oladi.

Davlat yer kadastrini yuritishda quyidagi bir qator asosiy tamoyillarga amal qilinadi:

- mamlakatning butun hududini qamrab olish;
- fazoviy koordinatalarning yagona tizimini qo'llash;
- yer kadastrga oid axborotni ishlab chiqilishi uslubiyatining birligi;
- yer kadastriga doir axborotlarning to'g'ri bo'lishi.

Yuqoridagilardan tashqari yer kadastrini quyidagi bir qator tamoyillari ham mavjud:

- Yaxlitlik, bu tamoyilga muvofiq davlat yer kadastri respublikamiz yagona yer fondini yagona uslubiyat asosida qamrab olishi zarur. Ammo yer kadastrining birligi – bu barcha yer toifalri va yer egaliklarining (yerdan foydalanuvchilar) ning bir xilda yoritilishi emas albatta. Qoidaga muvofiq qishloq va o’rmon hujaligi yerlari bo’yicha ma’lumotlar ancha keng holda to’planib o’rganilmoqda.
- Qonuniylik, bu tamoyilga yer kadastrini yuritishda alohida e’tibor beriladi. Bu prinspning bajarilishi asosan davlatimizning qonun xujjatlari bilan ta’minlanadi. Bularga «Yer kodeksi», yerlardan foydalanishda davlat nazorat to’g’risidagi qoida, davlat yer kadastrini yuritish bo’yicha yo’riqnomalar va ko’rsatmalar hamda yerlardan foydalanish, yer tuzish va yerlarni muhofaza qilish bo’yicha boshqa xujjatlr kiradi.
- Uzluksizlilik, bu tamoyil yer kadastrini yurtishni uzluksiz ravishda amalga oshirilishi zarur ekanligini ko’rsatadi, ya’ni yer kadastri yerlardan foydalanishda ro’y beradigan o’zgarishlarni doimiy ravishda hisobga olib yer fondi holatiningtavsifini berishi zarur. Bundan ko’rinadiki, yer kadastri ma’lumotlari yerlarning tabiiy, xo’jalik va huquqiy holatlarida bo’ladigan joriy o’zgarishlarni sistemali tarzda aniklab turilishi kerak.
- Ob’ektivlilik, ya’ni, bunda yer kadastri ob’ektiv bo’lishi zarurligini ko’rsatadi, uning barcha ko’rsatkichlari qat’iy bo’lishi, haqiqatga mos kelishi zarur. Yerlardan foydalanishning huquqiy tabiiy va xo’jalik holatlariga mos bo’ladigan faqatgina ob’ektiv ma’lumotlar mamlakat yer fondidan to’g’ri foydalanish va boshqarish bo’yicha davlat vazifalarini bajarish uchun muvaffaqiyatli qo’llanilishi mumkin. Shuning uchun ham yer kadastri xujjatlarini birlamchi yoki joriy o’zgarishlarni tasdiqlovichi xujjatlarga asoslanadi.

Ob’ektivlik nuqtai nazaridan yer egaliklarining o’zlari ham yer kadastrini to’g’ri yuritishlari katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun har bir yer egaligi (yerdan foydalanuvchi) zaruriy xujjatlarda yer kadastrini, yer tarkibida ro’y beradigan

o’zgarishlarni hisobga olgan holda yer egaligi (yerdan foydalanish)ning Xolati to’g’risida hisobot taqdim etishi zarur.

- Ko’rgazmalilik, bu tamoyil xo’jaliklarning kundalik faoliyatida yer kadastri ma’lumotlaridan keng foydalanish uchun ular mumkin qadar ko’rgazmali bo’lishi zarurligini ko’rsatadi. Ya’ni, yer kadastri oddiy bo’lishi hamda turli plan-xarita materiallarida ham aks ettirilgan bo’lishi kerak.
- Markazlashgan raxbarlik, ya’ni yer kadastrini yuritishning to’g’riligi hamda ulardan keng miqyosda foydalanish markazlashgan rahbarlik asosida davlat hokmiyati organlari tomonidan nazorat qilish bilan ta’minlanadi. Yer kadastrining birilgini ta’minlash maqsadida yer kadastriga rahbarlik, shuningdek yerlardan to’g’ri foydalanishni nazorat qilish respublika qishloq va suv xo’jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Yer kadastri bilan qishloq va suv xo’jaligi vazirligidagi yer tuzish organlari shug’ullanadilar. Tuman yer kadastri bilan hokimyat qoshidagi yer tuzish inspeksiyasi shug’ullanadi.
- Davlat yer kadastrini yuritish topografiya-geodeziya, kartografiya, tuproq, geobotanika va boshqa tekshiruvlari hamda izlanishlari, yerga egalik qilish va yerdan foydalanuvchilarni ro’yxatga olish yerlarni hisobga olish va ularga baho berish bilan ta’minlanadi.

Yer kadastri quyidagi tarkibiy qismlarni o’z ichichga oladi:

- yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni davlat ro’yxatiga olish;
- yerlarning miqdori va sifatini xisobga olish;
- tuproq bonitrovkasi;
- yerlarning qiymat bahosi.

Yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni davlat ro’yxatiga olish; - yer kadastrining birinchi tarkibiy qismi bo’lib u yer maydonlarining huquqiy jihatdan xo’jalik faoliyatini ta’minlaydi.

Bu tadbir yer mulkdorlari, yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning chegaralari bo’yicha yerlarning ma’lum ob’ektlarga qonuniy biriktirib qo’yish va qonuniy rsmiylashtirish, yer muldorlari, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga yerlarga mulchilik, egalik qilish, foydalanish huquqini beruvchi Davlat xujjatlarini

topshirish, yuqoridagi su'bektlarni tuman (shahar) Davlat yer kadastri kitobiga qayd qilishni o'z ichiga oladi.

Yerlarning miqdori va sifatini hisobga olish; – yer maydonlarining miqdor va sifati haqidagi to'la ma'lumotlarni olish, qayta ishlash, ma'lum tizimga keltirish hamda saqlash bo'yicha majmuali tadbir hisoblanidi. Yer maydonlarini miqdor jihatdan hisob-kitob qilish yer uchastkalarining ma'lum ma'muriy-hududiy birliklarga, yer toifalariga, yer mulkdorlari, yer egaliklari va yerdan foyldalanuvchilarga yer turlari bo'yicha taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlarnio'z ichiga oladi.

Tuproq bonitrovkasining asosiy maqsadi yerlarni tabiy barqaror xususiyatlari hamda xo'jalik sharoitida foydalanish jarayonida olgan fazilatlari bo'yicha hisobidan iborat. Tuproq bonitrovkasining natijalari yer maydonlarining iqtisodiy jihatdan hisobida xolisona asos bo'lib xizmat qiladi.

Yerlarning qiymat bahosi – bu maxsus ko'rsatkichlar asosida yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan samaradorlik xususiyatini, ularni iqtisodiy umumdorligini iqtisodiy jihatdan o'lchashdir, yer maydonlarini iqtisodiy jihatdan hisobida yerdan foydalanishning tabiiy (tuproq bonitet ballari orqali), iqlimiy (samarali harorat yig'indisi, yog'ingarchilik miqdori va boshqalar orqali), xo'jlik (ishlab chiqarish darajasining jadallashganlik darajasi) va texnologiya (konturlilik, maydonlar shakli, ishchi qiyaliklar) sharoitlari butun bir majmua tarzida hisobga olinadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish ma'lumotlari huquqiy kuchga ega. Albatta, yerlarni ro'yxat qilish ishchi tizim sifatida birdaniga shakllanmagan. U XX asrning 20-30 yillarida o'tkazila boshlangan hamda boshlang'ich davrlarda yerdan foydalanish huquqini rasmiylashtirish va yerga davlat mulkchiligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu bilan bir qatorda uning vazifasiga yer maydonlarining huquqiy va xo'jalik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tizimli tarzda saqlash va yangilab turish ishlari kirgan.

Yer uchastkasiga bulgan huquqlarni ro'yxatga olish yer hisobi bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish ma'lum bir yer uchastkasidan foydalanish, ijaraga olish huquqlarini rasmiylashtirish va yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilingan xujjatlarda qayd qilish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Bunda dastlabki xujjatlari yer uchastkalarining huquqiy holati to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Ammo, yerdan foydalanish ma'lum bir maqsadga yo'naltirilganligi hamda ma'lum hudud va aniq sub'ekt bilan bog'liq bo'lganligi sababli u o'z ichiga yer uchastkalarining xo'jalik holati, joylashgan o'rni va yerdan foydalanishning o'lchamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi.

Yer uchastkasini yerdan foydalanuvchiga berish to'g'risidagi vakolatli davlat organlarining qarori hamda yer tuzish loyihasini joyga ko'chirish va yer uchastkasi chegaralarini joyda belgilash to'g'risidagi dalolatnoma yerdan foydalanuvchi yoki yer-mulkdorini ro'yxat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat ro'yxatida rasmiylashtirilgandan so'ng yerdan foydalanuvchiga yerdan foydalanish huquqlarini beruvchi xujjatlar topshiriladi.

Yer uchastkalirini egalik kilish, foydalanish yoki mulk tariqasida berish yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun xujjatlarida belgilab quyilgan tartibda amalga oshiriladi. Foydalanishdagi yer uchastkasining boshqa shaxslarga berish shu yer uchastkasi belgilangan tartibda qaytarib olingandan keyingina amalga oshiriladi.

Yerni ijaraga olish huquqi yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Servitutlar va mulk huquqidagi boshqa cheklashlar yer uchastkalaridan foydalanish shartnomalar, sud qarorlari asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Yer uchastkasidan o'zgalarning ham qisman foydalanishi mumkinligi to'g'risidagi xuquq davlat hokimiyati organlarining qarorlari yohud qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Binoga, inshoatga va imoratga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tishi natijasida yuzaga kelgan yer uchastkasidan foydalanish huquqi ana shu

mulkdorlarning oldi-sotdisi, almashtirilganligi, xadya etilganligi yoki vasiyat qilinganligi to'g'risidagi tegishli shartnomalar va bitimlar, tuziladi. Mulkdorlarning yoki ular tomonidan vakil qilingan organlar va yuridik shaxslarning qarorlari, shuningdek binoga, imoratga, inshoatga mulk huquqi undan boshqaga o'tayotgan shaxsning yer uchastkasiga tegishli xujjatlari tegishli hokimiyat organlarining qarori bilan rasmiylashtirilganidan keyin ro'yxatdan o'tkaziladi.

Sanoat korxonalari, temir va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr energiyasini uzatish qurilmalari, magistral quvurlar qurish uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan bog'lik bo'lmagan boshqa extiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar yohud qishloq xo'jaligining sifati yomon bo'lgan yerlardan ajratiladi. Mazkur maqsadlar uchun o'rmon fondiga qarashli yerlardan yer uchastkalari asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki butazorlar va arzon baho o'simliklar bilan qoplangan maydonlar hisobidan beriladi.

Yerdan foydalanuvchiga foydalanish uchun bitta yoki alohida-alohida joylashgan bir necha yer uchastkalari berilishi mumkin. Bunda birinchi holatda ham ikkinchi holatda ham yerdan samarali foydalanishni tashkil etish uchun asos yaratadi, negaki yerdan foydalanish sub'ekt tomonidan amalga oshiriladi. U o'ziga biriktirilgan barcha hududdan foydalanish bo'yicha ma'lum huquq va majburiyatlarga egadir. Yerdan foydalanish ro'yxat qilinadi va u yer uchastkasi xuquqini ro'yxatdan o'tkazishning ro'yxat birligi asosini tashkil etadi. Ro'yxatlash yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning ob'ekti va xo'jalik yuritish sub'ekti sifatida yoki yerdan foydalanuvchining o'zga faoliyati sifatida gavdalanadi hamda ma'lum aniqlikdagi joylashgan o'rni va o'lchamlari bilan tavsiflanadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar, ya'ni yerdan foydalanuvchilar davlat tomonidan ushbu huquqlarni tasdiqlaydigan xujjatga ega bo'ladilar. Yerdan foydalanish turlariga qarab huquqiy rasmiylashtirish xujjatlari xamda yerdan foydalanuvchilarni ro'yxat qilish tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Yerdan foydalanishni ro'yxat qilish yer uchastkalaridan foydalanish muddatlari bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni muddatsiz va vaqtinchalik (uzoq muddatli va qisqa muddatli). Muddati oldindan belgilanmagan foydalanish muddatsiz hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, u doimiy yerdan foydalanishdir. Bunday yerdan foydalanishlar tuman (shahar) hokimiyatlari tomonidan yerlardan doimiy (muddatsiz) foydalanish huquqini beruvchi Davlat dalolatnomalari berish bilan vujudga keladi.

Yerdan muddatli foydalanish qisqa muddatli - bir yildan uch yilgacha va uzoq muddatli - uch yildan o’n yilgacha bo’lishi mumkin. Ishlab chiqarish extiyojlari talab qilgan hollarda bu muddatlar vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo’lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan foydalanish muddatlarini uzaytirish ana shu yer uchastkalarni bergan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yaylov chorvachilgi uchun yer uchastkalari qishloq xo’jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Yer uchastkalariga bo’lgan huquqlar uchun davlat ro’yxatini amalga oshirish yerdan foydalanish toifalari bo’yicha belgilangan tartibda tuman va shahar hokimiyatlarida amalga oshiriladi. Har bir yerdan foydalanuvchi bo’yicha muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa muddatli yerlar alohida ro’yxat qilinadi. Asosiy yer ro’yxati ma’lumotlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yerdan foydalanuvchilarning nomi, foydalanish turi, joylashgan o’rni, foydalanish muddati, yer maydoni va yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat xujjatining nomi, uning tartib raqami hamda yerdan foydalanuvchiga berilgan vaqti va boshqalar. Yerdan foydalanishning davlat ro’yxati tuman (shahar) Davlat yer kadastri kitobining birinchi bo’limida amalga oshiriladi.

Yer uchastkasidan foydalanish xuquqini ro’yxatlash bo’yicha ma’lumotlar tumanning va alohida yerdan foydalanuvchilarning boshqa kadastr xujjatlarida ham qayd qilinadi. Masalan, korxona, muassasa va tashkilotlarning yer kadastri kitobining birinchi bo’limida tuman (shahar) Davlat yer kadastri kitobining birinchi bo’limida qayd qilingan korxona, muassasa va tashkilotlarning asosiy yer ro’yxati ma’lumotlari kiritiladi. Kitobning beshinchi bo’limida esa fuqarolar tomorqa yerlarining maydonlari qayd qilinadi. Tomorqa yerlar to’g’risidagi ma’lumotlar qishloq fuqarolar yig’inida yuritilayotgan xo’jalik daftarida ham qayd qilib boriladi.

Yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni ro’yxatga olishning muhim tashkiliy tadbirlaridan biri – bu hududni kadastr bo’yicha bo’lish hisoblanadi.

## 2.2. Yer hisobi ma’lumotlari tizimi va undan foydalanishning uslubiy asoslari

Qishloq xo’jalik korxonalarida yer hisobi ishlarini bajarish yer kadastrining umumiy tizimida yer hisobi ishlarning asosiy jarayoni hisoblanadi, negaki, uning ma’lumotlari tuman, viloyat va mamlakat bo’yicha o’rtacha keltirilgan hisobi ko’rsatkichlarini aniqlashga asos bo’lib xizmat qiladi.

Yer hisobi ma’lumotlari qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini boshqarishni takomillashtirish uchun ob’ektiv asos bo’lib xizmat qiladi. Xo’jalik yuritishning xilma-xil shakllarining mavjudligi, xo’jalik rivojlanish darajasining rang-barangligi, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa ko’rsatkichlar bo’yicha farqi mulkchilikning turlicha ko’rinishda rivojlantirishni taqazo qiladi. Bunda asosan u yoki bu shakl rivojlanishining bosh omili bo’lib, ishlab chiqarishning samaradorlik ko’rsatkichi xizmat qiladi. Amliyot shuni ko’rsatdiki yuqori rentabelli qishloq xo’jalik korxonalari o’z faoliyatlarini davom etiraveradilar, past rentabelliklar esa qayta tashkil etiladilar. Lekin mulkchilik munosabatlarining doimiy takomillashishi asosida ularning ham boshqaruv tizimlarida chuqur o’zgarishlarga ehtiyoj tug’iladi. Bu o’zgarishlar asosan reja-direktiv tizimli boshqaruvning iqtisodiy boshqaruv usullari bilan almashtirish yo’nalishida bo’lishi zarur. Chunki bu kooperativ (shirkat) xo’jaliklaridan fermer xo’jaliklariga o’tishga, hujaliklarga to’la erkinlik berishga imkoniyat yaratadi. Bunday mummolarni hal qilish, xo’jalik yuritishninsh turli ilg’or shakllarini joriy qilishda yer hisobi ma’lumotlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari yer hisobi ma’lumotlari quyidagi qator masalalarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega: qishoq xo’jalik tarmoqlarining joylashtirilishini iqtisodiy asoslash; mahsulot sotib olish bahosini belgilash hamda respublikamiz mintaqalari buyicha tabaqalashtirish; yer solig’i va ijara haqi miqdorlarini aniqlish; qishloorq xo’jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini ob’ektiv tahlil qilish va hisobi; qishloq xo’jalik korxonalari tomonidan yerdan foydalanish darajasini aniqlash; qishloq xo’jalik ekinlari hosildorligini rejalashtirish; yer tuzish ishlarini o’tkazish; almashlab ekish maydonlarini to’g’ri tashkil etish va boshqalar.

Yer hisobi ma’lumotlaridan foydalanish chegarasi yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash hamda rejalashtirish ishlarining tashkil qilinishi munosabati bilan yanada kengaydi, negaki, yerlarni hisobi ma’lumotlari asosida turli yer toifalari, yer egaliklari, yerdan foydalanish va yer turlari nisbatini asoslangan tarda belgilash xalq xo’jalagining barcha tarmoqlarida yer maydonlaridan foydalanishni jadallashganlik darajasini aniqlash imkonini tug’diradi.

Yerlarni hisobi ma’lumotlari asosida xo’jaliklararo hamda ichki xo’jalik yer tuzish loyihalarining yechimlari iqtisodiy jihatdan asoslanadi. Hozirgi sharoitda yerlarni hisobi ma’lumotlaridan davlat, jamoat va boshqa maqsadlarda hamda yer ajiratishda foydalanish zaruriyati ayniqsa yaqqol sezilmoqda. Chunki ushbu materiallardan foydalanish natijasida yer ajratishning eng maqbul yechimlari tanlanadi. Yer hisobi ma’lumotlari sug’oriladigan dehqonchilik bilan shug’ullanuvchi xo’jaliklarda almashlab ekishlarni joylashtirishni iqtisodiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunga kelib qishloq xo’jalik korxonalarining xo’jalik faoliyatini yer hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish va shu asosida ular faoliyatiga baho berish, yerlardan foydalanish darajasini aniqlash ancha mukammal ishlab chiqilgan masalalardan biridir. Tahlilning asosiy vazifasi alohida olingan qishloq xo’jalik korxonalari va ularning bo’linmalari bo’yicha ishlab chiqarish natijalariga ta’sir qiluvchi ob’ektiv hamda su’bektiv omillarni bir-birlaridan ajiratgan holda xo’jalik yuritishga to’g’ri baho berishdir. Bundan tashqari qoloqlik sabablarini ochish va bu qoloqlikni tugatish yo’llarini ko’rsatish, ishlab chiqarish imkoniyatlarini qidirib topish hamda xo’jalik yuritishning iqtisodiy samaradorligini oshirishdir. Bu masalalarni to’g’ri hal qilish uchun birinchi galda tahlil qilish ko’rsatkichlarining bir-birlari bilan taqqoslanishini ta’minlash zarur. Agarda haqiqiy erishilgan natijani, masalan, dehqonchilikka (yalpi mahsulot qiymati, ekinlar hosildorliklari, yalpi va sof daromad va boshqalar) haydalma yerlarning fizik maydoniga (haqiqiy mavjud maydoniga) nisbatan olinsa, hosil bo’lgan solishtirma ko’rsatkichlarni (1 ga hisobiga) bir-birlariga taqqoslab bo’lmaydi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bunda yer maydonlarining sifat ko’rsatkichlari hisobga olinmasdan qoladi. Shu sababli tahlil

qilinuvchi ko'rsatkichlarning zaruriy taqqoslanishini ta'minlash maqsadida hisoblash natijalari bo'yicha oddiy ammo samarali ko'rsatkich qabul qilinadi, ya'ni tahlil uchun zaruriy ko'rsatkichlar haydalma yerlarning kadastr (shartli) gektariga nisbatan olinadi.

Kadastr gektarlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{кад} = \frac{P_{ф} \cdot Б}{100}$$

bu yerda, $P_{ф}$ - qishloq xo'jalik yer turlarining (haydalma yer) fizik (haqiqiy) maydonlari, ga

$Б$ - berilgan yer turi bo'yicha hisobi bali, ball

Qishloq xo'jalik korxonalari, jumladan, shirkat va jamoa korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tavsiflaydigan umumiy ko'ratkichlardan biri bu bir gektar haydalma maydonga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot qiymati hisoblanadi. Bu usulda avvval xo'jaliklarning 1 gektar fizik maydon hisobiga yetishirgan yalpi mahsuloti qiymati hisoblanadi va tumanda egallagan o'rni aniqlanadi, so'ngra 1 gektar kadastr maydoni hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsuloti qiymati hisoblanadi va tumanda egallagan o'rni aniqlanadi. Bu ma'lumotlar birinchi galda tuman xo'jaliklari turli yer sharoitlarida o'z faoliyatlarini qanday darajada olib borayotganliklarini ko'rsatsa, ikkinchi navbatda, yer maydonlarining unumdorlik holatini hisobga olish, yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan xo'jaliklarning o'zlaridagi mavjud imkoniyatlardan tula foydalani olmayotganligini ham aniqlash imkonini beradi.

Yer hisobi ma'lumotlari alohida shirkatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni ob'ektiv tahlil qilish imkonini beribgina qolmasdan, shu bilan birga, foydalanlanilayotgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini shu vaqtning o'zida aniqlash hamda shu bilan bir vaqtda sug'oriladigan yerlardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun alohida olingan xo'jalikning yalpi mahsulot ko'rsatkichi tumandagi ilg'or xo'jalikning aynan shunday ko'rsatkichi bilan solishtiriladi.

Ilg'or deb, har bir kadastr gektari hisobiga ko'p mahsulot yetishtirgan xo'jalik qabul qilinadi. Har bir xo'jalikda 1 gektar kadastr maydoni hisobiga yetishtirilgan

yalpi mahsulot miqdorini ilg’or hujalikning aynan shunday ko’rsatkichiga nisbati orqali haydalma yerdan foydalanish darajasi topiladi. Bundan tashqari, ushbu ko’rsatkichlar yordamda xo’jaliklardagi mahsulot yetishtirishning istiqboldagi imkoniyatlari ham aniqlanadi.

Xo’jalik faoliyatini tahlil qilishda ekinlarning hosildorlik ko’rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unumdorligi turlicha bo’lgan yer maydonlarida yetishtirilishi mumkin bo’lgan paxta va boshqa qishloq xo’jalik ekinlarining o’rtacha hosildorligini aniqlash uchun muayyan tuproq boniteti balini 1 ball bahosiga ko’paytirish zarur. Alohida qishloq xo’jalik ekinlari maydonlaridan foydalanish darajasi haqiqiy hosildorlikni me’yoriy xosildorlikka nisbati ko’rinishida aniqlanadi.

Me’yoriy hosildorlik ($У_м$) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$У_м = (У_т / Б_т) \cdot Б_х$$

bu yerda: $Б_х$ - xo’jalik bo’yicha o’rtacha hisobi bali, ball;

$Б_т$ - tuman bo’yicha o’rtacha hisobi bali, ball

$У_т$ - tuman bo’yicha qishloq xo’jalik ekinining haqiqiy o’rtacha hosildorligi, s/ga.

Ma’lumki, yalpi mahsulotlar miqdori , qishloq xo’jalik ekinlarining hosildorligi va boshqa natijaviy ko’rsatkichlarning miqdorlari faqatgina tuproqlarning unumdorliklari bilan aniqlanmasdan, balki shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarishning jadallashganlik darajasi bilan majmuali tarzda aniqlanadi. Bunda ayniqsa ishlab chiqarishning natijaviy ko’rsatkichlari bilan uzviy bog’liqligini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Bu esa ko’p omilli korrelyatsiya-reressiya usuli yordamida amalga oshiriladi. Ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda qishloq xo’jalik korxonalarining biznes-rejalarni tuzishda ekinlarining hosildorligini rejalashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Yer hisobi ma’lumotlari yerlardan foydalanish darajasini aniqlash bilan aniq qishloq xo’jalik ekinlari hosilorliklarini istiqbol uchun rejalashtirishda ham qo’llaniladi. Bu hol hozirgi kunda tashkil etilayotgan fermer xo’jaliklari hamda

faoliyat ko'ratayotgan oilaviy pudratchilar bilan tuziladigan shartnomalarining hayotiyligini oshiradi.

Yer hisobi ishlari respublikamizning barcha hududlarida o'tkazilishini har tomonlama asoslangan yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitldarini vujudga keltiradi. Yerlarni hisobining ob'ektiv natijalaridan foydalanish loyihalash jarayonini tubdan yaxshilash, loyihaviy qarorlar qabul qilishda su'betivlikni qisqartirish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki sug'oriladigan mintaqalar ichki xo'jalik yer tuzishining muhim tarkibiy qismi bo'lib almashlab ekish maydonlarini tashkil qilish hisoblanadi. Almashlab ekish maydonlarini tashkil qilish masalalarini ilmiy asosda hal qilish uchun yer hisobi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Almashlab ekish maydonlarini tashkil qilishning bosh elementlaridan biri - dalalar maydonlarini aniqlash hamda ularni joylashtirishdir. Almashlab ekish dalalari butun sug'orish uchastkalaridan tarkib topadi. Ular muayyan katta-kichikligi bilan bir-biridan farqlanadi. Ko'pchilik hollarda dalalar tarkibidagi tuproq xillarining unumdorlik darajasi dalalarni joylashtirishda hisobga olinmaydi. Shunday ekan, har bir almashlab ekish dalasi faqat maydoni jixatdan teng bo'libgina qolmay, sifat jixatidan ham bir xil bo'lishi kerak.

Almashlab ekishda almashinish yillari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini teng miqdorlarda yetishtirishni ta'minlash zarur. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish vositalari hamda ishchi kuchlaridan teng miqdorda foydalanishni ta'minlaydi. Bunga teng maydonli va sifatli almashlab ekish maydonlarini loyhalash orqali erishiladi. Umuman dalalarning miqdor jihatidan tengligini hisobida ularning haqiqiy maydonlari dalaning o'rtacha maydoni bilan solishtiriladi. Eskidan sug'oriladigan mintaqalarda teng maydonlikni ta'minlash juda mushkul, negaki, haydalma yerlar sug'orish tarmoqlari, kolektor-zovurlar, yo'l tarmoqlari va boshqa chiziqli inshootlar bilan bo'linib ketgan. Shu nuqtai nazardan, loyihalangan dalalarni tanqidiy ravishda o'rganish zarur. Bunda asosan dalalarni joylashtirish, ularni soni hamda maydonlarining miqdoriga muhim ahamiyat beriladi. Sug'oriladigan xo'jaliklarda almashlab ekish dalasi asosiy hududiy birlik hisoblanib, joyning sug'orish sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur.

Almashlab ekish maydonlarini hududiy joylashishi hamda miqdorlari bir qancha sharoitlarga bog'liq. Amashlab ekish massivlarinig maydonlari, almashlab ekish ekinlarining almashinish sxemasi va tarkibi, dalalarni oilaviy pudratlarga biriktirilish tartibi, joyning hududiy xususiyatlari, tuproq xillari, ekin maydonlarini yo'llar kanallar va boshqa har xil chiziqli elementlar bilan bo'linganligi. Shu sababli ham layihalashda, odatda haqiqiy maydonlar uchun ularning o'lchamidan 13-17 foizga farqli bo'lishi mumkinligi qabul qilingan. Almashlab ekish dalalarini qabul qilingan tengligi sharoitida qishloq xo'jalik ekinlari maydonlarining doimiyligi faqatgina bir xil sifatga ega bo'lgan tuproqda almashlab ekish massivida saqlanishi mumkin. Xilma-xil tuproqlarlarda joylashgan almashlab ekish massivlarida qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi mahsulot hajmi alohida dalalarning yalpi mahsulot hajmi ushbu dalalarning tuproqlari turli xil bo'lganligi uchun almashinish yillari bo'yicha o'zgarishi mumkin. Almashlab ekish dalasining katta kichikligini aniqlab bo'lingandan so'ng almashlab ekish dalalari bo'yicha o'rtacha hisoblangan hosildorlik aniqlanadi. Undan keyin o'rtacha yalpi hosil aniqlanadi, u o'rtacha dala maydonini aniq bir qishloq xo'jalik ekinining o'rtacha hisoblangan hosildorligiga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Dalalardan olingan yalpi qishloq xo'jalik ekinlarining ko'rsatkichlaridagi farqlar dalalarni barpo etishda tuproq sifatini hisobga olmaslik natijasida paydo bo'ladi. Anik bir turdagi qishloq xo'jalik ekinining hosilini va hosildorligini dalalar bo'yicha barqaror saqlash uchun tuproqlarning unumdorlik qobiliyatini hisobga olgan holda dala maydonlarini qaytadan ko'rib chiqish zarur. Shunday qilib, tuproqning sifat holati hisobga olingan dalalar maydonlarini o'zgartirish bilan yalpi hosil jihatidan dalalar o'rtasidagi o'zaro farqni kamaytirishga erishish mumkin. Demak, yetishtiriladigan mahsulotning tengligiga dalalarning o'lchamlaridan tashqari ekin maydonlarining sifati ham ta'sir qiladi.

Bir xil miqdorda yalpi mahsulot yetishtirishni ta'minlash uchun dalalarni loyihalashda sug'oriladigan maydonlarni sifati bo'yicha dalalarni tenglashtirish tavsiya qilinadi.har bir dalani, uning unumdorlik xususiyatini, ya'ni baholoash ko'rsatkichini hisobga olgan holda maydonini hisoblash topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$P_{д} = P_{урт} + P$$

bu yerda, $P_{д}$ - yer bahosini hisobga oglgan holda dalaning maydoni, ga

$P_{урт}$ - almashlab ekish massividagi dalalarning o'rtacha maydoni, ga

$P$ - o'rtacha maydonli dalaning hisobi ballari hisobiga bo'lgan farqlarga tuzatma, ga

O'z navbatida:

$$P = \frac{Б_{урт} - Б_{д}}{Б_{д}} \cdot P_{урт}$$

bu yerda: $Б_{урт}$ - o'rtacha maydonli dalaning bonitet bahosi, ball;

$Б_{д}$ - har bir dalaning bonitet bahosi, ball.

Bulardan kelib chiqadiki,

$$P_{д} = P_{урт} + \frac{Б_{урт} - Б_{д}}{Б_{д}} \cdot P_{урт}$$

Ushbu formulalardan foydalanilgan holda yer maydonlarining sifatini hisobga olib dalalar maydonlarini hisoblash mumkin. Bunday o'lchamda yalpi mahsulotlarning miqdorlari bo'yicha tengligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Soliq kodeksi» ga va boshq me'yoriy xujjatlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasida yerga egalik qilish va yerdan foydalanish uchun haq to'lanadi.

Yer uchun haq har yilgi yer solig'i shaklida undirilib, uning miqdorlari yer uchastkasining sifati, qanday joydaligi va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanidi.

Ma'lumki, respublikamizdagi barcha qishloq xo'jalik yerlari 1995 yil 1 yanvardan boshlab yer solig'iga tortildi. Yer solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, uning qiymati yer hisobi natijalariga qarab belgilanadi.

## 2.3. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish va kadastr raqamlarini shakllantirishning nazariy asoslari hamda uslubyati

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar uchun davlat ro'yxatini amalga oshirish yerdan foydalanish toifalari bo'yicha belgilangan tartibda tuman va shahar hokimiyatlarida amalga oshiriladi. Har bir yerdan foydalanuvchi bo'yicha muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa muddatli yerlar alohida ro'yxat qilinadi. Asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yerdan foydalanuvchilarning nomi, foydalanish turi, joylashgan o'rni, foydalanish muddati, yer maydoni va yerdan foydalanish huquqini beruvchi davlat xujjatining nomi, uning tartib raqami hamda yerdan foydalanuvchiga berilgan vaqti va boshqalar. Yerdan foydalanishning davlat ro'yxati tuman (shahar) Davlat yer kadastri kitobining birinchi bo'limida amalga oshiriladi.

Yer uchastkasidan foydalanish xuquqini ro'yxatlash bo'yicha ma'lumotlar tumanning va alohida yerdan foydalanuvchilarning boshqa kadastr xujjatlarida ham qayd qilinadi. Masalan, korxona, muassasa va tashkilotlarning yer kadastri kitobining birinchi bo'limida tuman (shahar) Davlat yer kadastri kitobining birinchi bo'limida qayd qilingan korxona, muassasa va tashkilotlarning asosiy yer ro'yxati ma'lumotlari kiritiladi. Kitobning beshinchi bo'limida esa fuqarolar tomorqa yerlarining maydonlari qayd qilinadi. Tomorqa yerlar to'g'risidagi ma'lumotlar qishloq fuqarolar yig'inida yuritilayotgan xo'jalik daftarida ham qayd qilib boriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishning muhim tashkiliy tadbirlaridan biri – bu hududni kadastr bo'yicha bo'lish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish ko'chmas mulkni hisobga olishning yagona tizimini yaratish hamda yer uchastkalari, binolar va inshoatlarga kadastr raqamlarini berish maqsadida amalga oshiriladi.

Yer uchastkalari kadastr bo'yicha bo'lishning va ajratish tartibida ajratilgan yerni hisobga olishning dastlabki birligi hisoblanadi.

Muayyan yuridik va jismoniy shaxslarga biriktirilmagan umumiy foydalanishdagi yerlar, jumladan ko'chalar, maydonlar, ko'kalamzorlashtirilgan mintaqalar, yodgorlik majmualari, qabristonlar, shahar axlatxonalari, shahar qurilishi

uchun ajratiladigan zahira yerlar va boshqa yerlarga bo'linadigan kadastr bo'yicha hisobga olish uchastkalari yerni kadastr bo'yicha bo'lish va hisobga olish birligi hisoblanadi.

Hududlarni kadastr bo'yicha bo'lish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar (shahar tumanlaridan tashqari) doirasida yer resurslari boshqarmalari tomonidan, shaharlar va aholi punktlari doirasida – tumanlar ko'chmas mulk kadastri xizmatlari tomonidan o'tkaziladi.

Kadastr raqami bu – yer uchastkasi, bino, inshoatga tegishli O'zbekiston Respublikasi hududida takrorlanmaydigan raqamdir, u qonun xujjatlari bilan belgilangan tartibda uni shakllantirishda beriladi va u ro'yxatdan o'tkazilgan huquqning yagona ob'ekti sifatida faoliyat yuritish davomida saqlanib qoladi.

Quyidagilar yer uchastkasi, bino va inshoatlarning kadastr raqamining majburiy elementlarini tashkil etadi:

- mintaqa (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) ning raqami;

mintaqa tarkibidagi ma'muriy tuman yoki viloyatga bo'ysunuvchi shaharning raqami;

kadastr zonasining raqami;

kadastr massivining raqami;

kadastr mavzesining raqami;

yer uchastkasining raqami;

bino yoki inshoatning raqami;

bino, inshoat bir qismining raqami;

Yaxlit holda kadastr raqami quyidagi tuzilmaga ega:

**AA : VV : DD : YeYe : G'G'G'G' : GGGG : NNN**

Yer uchastkasiga kadastr raqamini berish yer uchastkalariga ko'chmas mulk ob'ekti sifatida shakllantilgan va ularning chegaralari tuman (shahar) navbatchi kadastr xaritasiga kiritilganidan keyin boshlanadi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bo'linadi. Birlamchi ro'yxat qilishda yangi yerdan

foydalanuvchilarni rasmiylashtirish, yer ro'yxati xujjatlariga birlamchi zarur ma'lumotlarni tushirish va tizimga keltirish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi. Uni o'tkazish jarayoni natijasida yer uchastkaliriga bo'lgan huquqlar bo'yicha birlamchi yozuv tushiriladi. Keyinchalik xujalik faoliyatining rivojlanishi natijasida yerdan foydalanishning o'lchamlari va tarkibida u yoki bu ko'rinishlardagi qonuniy o'zgarishlar ro'y beradi. Bu hol esa yerlarning huquqiy holatini aniqlashga zarurat tug'diradi. Masalan, davlat va jamoat zaruriyatlari uchun yer ajratilishi natijasida yerdan foydalanishning umumiy maydoni, jumladan alohida yerdan foydalanish turlarining maydonlari o'zgaradi. Bunday holatlar ayniqsa yerdan vaqtinchalik foydalanishda ko'p uchraydi. Ba'zi holatlarda esa aksincha yerdan foydalanuvchiga oldin undan olingan yer uchastkasi qaytarib beriladi. Negaki, bunday holatda oldin ajratib berilgan maqsadlar uchun yerdan foydalanishga extiyoj qolmagan. Bundan boshqa xam qator qonuniy sabablar bo'lishi mumkin.

Yerdan foydalanishdagi barcha qonuniy o'zgarishlarni rasmiylashtirib borish va ushbu o'zgarishlarga hamda birlamchi ro'yxat ma'lumotlariga zaruriy aniqliklar kiritish yerdan foydalanishning joriy ro'yxati tartibida amalga oshiriladi. Shu tarzda yer uchastkalarining ro'yxatlash ma'lumotlari doimiy ravishda shu kun talabi darajasida bajarib boriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning yuzaga kelishi, uni o'zga foydalanuvchiga o'tishi, undan foydalanish bo'yicha cheklanishi yoki bekor qilinishi ham davlat ro'yxatiga olib boriladi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olish yig'imi undiriladi. Davlat ro'yxatiga olish belgilangan tartibda, yuridik yoki jismoniy shaxsning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish ishlarini amalga oshiruvchi organga bergan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Ro'yxatga olish ariza bergan kundan e'tiboran un kunlik muddatda amalga oshiriladi va davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma beriladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish vaqtida tuman (shaxar) yer kadastri kitobiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

-yer uchastkasiga bo'lgan huquqni olgan yuridik yoki jismoniy shaxs to'g'risidagi;

-yer uchastkasi to'risidagi (yerning toifasi, foydalanish maqsadi, yerning turi, uning sifati, chegaralari, maydoni, kadastr raqami va boshqalar);

-yer uchastkasining berilish shartlari, uni saqlash vazifalari va servitutlar to'g'risidagi;

-tuman, shahar, viloyat hokimining, Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer uchastkasini davlat yoki jamoat extiyojlari uchun ajratish xususidagi qarorlari to'g'risidagi;

-davlat ro'yxatiga olinganlik haqidagi guvohnomaning tartib raqami va u berilgan sana to'g'risidagi ma'lumotlar.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi xujjatlar ana shu huquqlarni davlat ro'yxatiga olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish uchun berilgan arizalarni ro'yxatga olish maxsus ro'yxatga olish jarayonida yuritiladi.

## 2.4. Dala sharoitida Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi masalalari

Mineral o'g'itlar, o'simliklarni o'sishini ta'minlovchi, pestitsidlar zararsizlantiruvchi vositalar sifatida o'simlikshunoslik amaliyotiga keng kirib kelgan. Ular yukori va sifatli xosil olishni ta'minlaydi. Birok bu moddalar muayyan mikdorda insonga va atrof-muxitga xavflidir.

Kimyoviy moddalarning insonga ta'siri ular bilan bevosita (aralashmalar tayyorlanganda, uruglarga, tuprokka o'simliklarga ishlov berishda, ishlov bergan uchastkalarda ishlaganda) va bilvosita-o'simlik, ozik-ovkat maxsulotlari orkali, kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilgan dalalardan olingan meva-sabzavotlar, shuningdek xayvonot maxsulotlari orkali (gusht, tvorog, sut, tuxum va boshk.) va o'simlik maxsulotlari yem sifatida ishlatilganda kaysilari tarkibida nitrat va

pestitsidlarning mikdori me’yoriy kursatkich darajasidan yukori bulganda seziladi. Pestitsidlar inson uchun mineral o’g’itlarga nisbatan xavflidir.

Ishlatilishiga ko’ra pestitsidlar insektitsidar (kumkumurskaga karshi ko’rashish uchun), akaritsidlar (kanaga), rodensidlar (zararli kemiruvchilarga), fungitsidlar (zamburuglarga), bakteritsidlar (bateriyalar), gerbitsidlar (begona utlar) va boshkalarga bulinadi.

Gigiyenik xususiyatlariga ko’ra pestitsidlarning tasnifi quyidagicha:

- Tajribadagi xayvonlarning oshqozoniga (juda ta’sirchan, uta zaxarli, o’rta zaxarli, kam zaxarli) yuborish vaktidagi zaxarlanishiga karab;
- Teri orkali zaxarlanishiga karab (keskin, o’rta va kuchsiz ifodalangan);
- Uchuvchanligiga ko’ra (uta xavfli, xavfli va kam xavfli);
- Zaxarli moddalarning organizmga tuplanib kuchli ta’sir kilishiga ko’ra (o’rta, yukori, sezilarli, o’rtamiyona, kam sezilarli);
- O’rtamiyona barqaror – 1oydan 6 oygacha va kam barqaror – 1 oygacha

Pestitsidlar va mineral o’g’itlar bilan zaharlanishni oldini olishdagi (profilaktika qilish) asosiy usullari: ular bilan ishlaganda me’yor, mehnat muhofazasi bo’yicha qoida va qo’llanmalarga rioya qilish. Ishchilar shaxsiy va kollektiv himolanish vositalarini ishlatishi, agrotexnikaga, ekinlarga qayta ishlov berishlarni yashash joylardan, molxonalardan, suv havzalaridan kerakli uzoqlikda olib borish, ruxsat etilgan shamol tezligida, hosilni terib olishgacha ekinlarga berilgan oxirgi kimyoviy ishlov muddatini saqlash; o’rganilgan va faqat ruxsat etilgan preparatlardan foydalanish. Granullangan pestitsidlardan foydalanish mehnat sharoitlarini yaxshilashda samarali natijalarni bermoqda.

Pestitsidlar va mineral o’g’itlar bilan ishlaganda tibbiy ko’rsatkichlarga to’g’ri kelmagan, dastlabki va davriy (1 yilda bir marta) tibbiy ko’rikdan o’tgan shaxslarga ruxsat etiladi. Pestitsidlar bilan ishlashga xomilador va emizakli ayollar, 18 yoshga to’lmagan va 55 yoshdan katta (erkaklar) va 50 yoshdan oshgan (ayollar), shuningdek mexanizator ayollarni pestitsidlar va mineral o’g’itlarni purkash, changlatish, tashish, ortish va tushirish ishlariga jalb qilish mumkin emas. Pestitsidlar bilan ishlaydiganlar, mehnat muxofazasi bo’yicha har yili instruktirdan

